

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR ORGANLARI
TIZIMIDAGI EKSPERT-KRIMINALISTIKA SOHASINI TERGOVGA
QADAR TEKSHIRUV, SURISHTIRUV VA DASTLABKI TERGOV
FAOLIYATIDA ASHYOVIY DALILLAR BO'YICHA ISBOTLASH
BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA RAQAMLI AXBOROT QIDIRUV
TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI ISHLAB
CHIQUISH HAMDA ULARNI AMALIYOTDA QO'LLASH CHORALARI**

Mansurov Arslon Askarovich

*Toshkent shahar IIBB Ekspert-kriminalistika markazi Kriminalistik
ekspertizalar bo`limi eksperti kapitan*

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda infratuzilmalari tahlil qilinadi hamda olingan natijalar asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha bir qancha muammolar va ularning mumkin bo'lgan yechimlari atroflicha ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalarida raqamli texnologiyaning global ahamiyatga ega bo'lgan platformalarini yaratish mexanizmlari haqida batafsil bayon etilgan hamda ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, dalillarni olish mexanizmlari, dalillar bazasini yaratish bo'yicha shaxsiy fikrlar haqida so'z boradi.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируется развитие и инфраструктура цифровой экономики, и на основе результатов подробно рассматривается ряд проблем, связанных с развитием цифровой экономики в нашей стране и возможные пути их решения. подробное описание механизмов создания платформ цифровых технологий мирового значения в различных отраслях экономики нашей республики. личное мнение о реформах, проводимых в системе органов внутренних дел, механизмах получения доказательств и создании доказательная база обсуждается.*

ABSTRACT: *In this article, the development and infrastructure of the digital economy is analyzed, and based on the results, a number of problems related to the development of the digital economy in our country and their possible solutions are considered in detail. In addition, a detailed description of the mechanisms for creating platforms of digital technology of global importance in various sectors of the economy of our republic. personal opinions on the reforms carried out in the system of internal affairs bodies, the mechanisms of obtaining evidence, and the creation of the evidence base are discussed.*

KALIT SO‘ZLAR: *ashyoviy dalillar, dalillar maqbulligi, qidiruv texnikasi, xizmat doirasida, texnikalar, konsepsiya, raqamli axborot, ma`lumot, raqamli olam.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *вещественные доказательства, допустимость доказательств, методика обыска, внутри службы, методика, понятие, цифровая информация, информация, цифровой мир.*

KEY WORDS: *physical evidence, admissibility of evidence, search technique, within the service, techniques, concept, digital information, information, digital world.*

Bugungi zamonda raqamli iqtisodiyot, moliya va ular bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2018 yil 28 dekabrda 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlanishi bo'yicha quyidagilarni aytib o'tdi: "Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko'zda tutadigan "Raqamli iqtisodiyot milliy kontseptsitasi"ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tadbiq etishimiz

zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli halqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha "yo'l haritasi"ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot havfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur". Shuning uchun ham uni qanday rivojlantirish masalalari jamiyat va halq oldida ko'ndalang bo'lib turibdi. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasining ba'zi bir yo'nalishlari mualliflar nuqtai-nazaridan muhokama qilinadi. Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo'layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o'zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi. "Raqamli iqtisodiyot" atamasi birinchi bo'lib 1995 yilda Don Tepkott muallifligida chop etilgan "Raqamli iqtisodiyot: tarmoqli intellekt asrida va'da va xavf-xatar" (The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence) nashrida alohida tushuncha sifatida istiloh etilgan. Ushbu nashrda raqamli iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlariga fundamental innovatsiyalar (yarimo'tkazgichlar, protsessorlar), asosiy texnologiyalar (kompyuterlar) va bog'lovchi infratuzilmalar (internet va telekommunikatsiya tarmoqlari) ajratib ko'rsatiladi. Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi. Birinchidan, raqamli iqtisodiyot – bu rivojlanishning zamonaviy bosqichi hisoblanib, u ijodiy mehnat va axborot ne'matlarining ustuvor o'rni bilan tavsiflanadi. Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot–bu o'ziga xos tushuncha bo'lib, uning o'rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o'z rivojlanishining boshlang'ich davrida bo'lib, zamonamizning raqamli axborot bosqichiga o'tishi atiga bir necha o'n yilni tashkil etadi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot – bu jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbobuskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon

beradigan, raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili hisoblangan faoliyatdir.

Chunonchi, respublikamizda "Elektron hukumat" tizimini joriy etish raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi ma'muriy tartib va taomillardan o'tishni soddalashtirish, aholi turmush sifatini oshirish, investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashga qaratilgan. Belgilab olingan asosiy vazifalar ijrosini amalga oshirish, shuningdek, mamlakatimizda raqamli jamiyat rivojlanishi, aholi va tadbirkorlar uchun qulay imkoniyatlar yaratish, byurokratik to'siqlar va korrupsiyaviy omillarlardan holi samarali va ochiq davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirish borasida ko'zlangan maqsadga erishish uchun bugungi kunda iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "raqamli iqtisodiyot" milliy konsepsiyasini ishlab chiqilayotgan bo'lib, aynan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yalpi ichki mahsulot hajmini qo'shimcha 30 foizga o'stirish imkoni yaratilishi kutilmoqda. Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida 2020 yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berish taklifi ilgari surilishi tom ma'noda O'zbekiston hayotida global taraqqiyotga hamohang ravishda tarixiy burilish davri boshlanganini tasdiqladi. Jahon iqtisodiyotining globallasuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz tasavvur qilish qiyin. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, 2022-yilga kelib global YaIMning chorak qismi raqamli sohada bo'lishini taxmin qilinmoqda. Lekin, xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlantirish indeksi bo'yicha O'zbekiston 170 dan ortiq davlat ichida 103-o'rinni egallab turishining o'zi mamlakatimizda bu sohada hali o'z yechimini kutayotgan masalalar va qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'pligidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbarining ta'kidlashicha, "...yurtimiz xalqaro axborot

kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo'yicha 2019-yilda 8-pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqada. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o'tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi.

O'z o'rnida qayd etib etish lozimki, mamlakatimiz hayotida raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o'tkazilmoqda. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning ta'biri bilan aytganda, “raqamli iqtisodiyot yangi xavf-xatarlarni vujudga keltirishi mumkin, shu jumladan, kiberxavfsizlikka tahdidlar, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning yengillashuvi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzilishi bilan bog'liq sabablarni keltirish mumkin. Yangi qarorlar qabul qilish hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademik guruhlar, ilmiy hamjamiyat va texnologik sektorlarning hamkorlikdagi harakatini talab etadi”. Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyot miqyosining kengayib borishida xalqaro hamkorlikni imkon qadar kuchaytirish zarur. Shu o'rinda mamnuniyat bilan qayd etish joizki, O'zbekistonda axborot xavfsizligi sohasida olib borilayotgan ta'sirchan chora-tadbirlar natijasida 2019-yilda Kiberxavfsizlik global indeksida 41 pog'onaga ko'tarilib, 52-o'rinni egalladik

PQ-162 24.05.2023 qabul qilingan “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida” dagi qarorda aynan ichki ishlar organlari faoliyati uchun muhim raqamli islohotlar va texnologiyalar bilan taminlash uchun muhim turtki boldi. Xususan,

2023-2024-yillarda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor loyihalar

2023-2024-yillarda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor loyihalar

2023-2024-yillarda hududlarni raqamli transformatsiya qilish bo'yicha ustuvor loyihalar

2023-yilda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida birinchi navbatda joriy etiladigan raqamli xizmat va servislar

“Raqamli hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida raqamli shaklda taqdim etilishi orqali 2023-yil 1-dekabrda boshlab aholi va tadbirkorlik subyektlaridan talab qilish bekor qilinadigan ma'lumotlar

Aholi va tadbirkorlik subyektlariga xizmatlardan foydalanish holati bo'yicha yuboriladigan eslatma va xabarnomalar

“Raqamli hudud” dasturi doirasida joriy etiladigan axborot tizimlariga integratsiya qilinadigan vazirlik va idoralar ma'lumotlari

IT-park va uning filiallari hududida joylashgan va yuridik manzilda ro'yxatdan o'tgan tashkilotlar tomonidan axborot texnologiyalari sohasidagi loyihalarni venchur moliyalashtirish hamda akseleratsiya dasturlarini amalga oshirish.

8. Belgilansinki, IT-park direksiyasi hamda ustav fondida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushiga ega yuridik shaxslar tomonidan IT-park hududida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarini raqamli texnologiyalar sohasida ilg'or startap loyihalariga ega IT-park rezidentlariga to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berishga ruxsat etiladi.

Bunda, ijaraga berishdan tushgan mablag'lar mazkur ko'chmas mulk obyektlarini balansda saqlovchilar ixtiyorida qoldiriladi.

9. Raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassis va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida:

a) “Bir million dasturchi” loyihasining navbatdagi bosqichi sifatida xorijiy nufuzli ta'lim platformalarida IT-yo'nalishdagi onlayn o'quv kurslarda tahsil olish imkoniyati yo'lga qo'yiladi.

Bunda:

kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan 15 ming nafar yoshlar saralanib, ularda

xalqaro miqyosda faoliyat yuritish ko'nikmalari shakllantiriladi;

xorijiy nufuzli ta'lim platformalarida muvaffaqiyatli o'qishni yakunlagan va tegishli sertifikatga ega yoshlarga kompyuter xaridi uchun iste'mol kreditlari ajratish amaliyoti davom ettiriladi;

2023-yil 1-avgustdan boshlab yoshlarga kompyuter xaridlari uchun ajratiladigan mablag'lar hisobidan mikroqarz shaklida hamda "Yoshlar daftari" va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi jamg'armalari hisobidan beriladigan subsidiya mablag'larini ijtimoiy kontrakt asosida yoshlar xohishiga ko'ra alohida ochilgan bank kartasiga (naqdashtirish imkoniyatisiz) o'tkazishga ruxsat beriladi;

b) 2023-yil 1-oktabrdan boshlab B2 va undan yuqori xorijiy til bilish darajasiga ega bo'lgan fuqarolar tomonidan tizim boshqaruvi, ma'lumotlar bazasi va "bulutli" platformani boshqarish, axborot xavfsizligini ta'minlash va boshqa talab yuqori bo'lgan yo'nalishlarda xalqaro IT-sertifikatlarni olish xarajatlarining 100 foiz qismini qoplash tizimi joriy etiladi;

v) bitiruvchisi IT-xizmatlarni eksport qiluvchi IT-park rezidenti bo'lgan kompaniyalarga ishga joylashgan nodavlat o'quv markazlariga har bir bitiruvchi uchun Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 75 baravarigacha, nogironligi bo'lgan yoshlar uchun esa 105 baravarigacha bir martalik subsidiya ajratish yo'lga qo'yiladi;

g) 2024-yil 1-apreldan boshlab maxsus axborot platformasi orqali davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining raqamlashtirishga mas'ul o'rinbosarlari va xodimlari raqamlashtirish sohasidagi qoidalar va qonunchilik talablari bo'yicha "hayot davomida ta'lim olish" tamoyili asosida o'qitiladi.

10. Belgilansinki, aholini sifatli raqamli infratuzilma bilan ta'minlash maqsadida barcha aholi yashash maskanlari 2024-yil yakuniga qadar keng polosali mobil aloqa va keng polosali ma'lumotlar uzatish tarmoqlari bilan to'liq qamrab olinadi.

11. Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi 2023-yil 1-oktabrdan boshlab

davlat organlari va tashkilotlari tomonidan joriy etilgan raqamli texnologiyalar bo'yicha loyihalar samaradorligi, ko'rsatiladigan raqamli xizmat va servislar texnik faoliyatining sifati hamda barqarorligi ustidan raqamli nazoratni o'rnatish.

Konsepsiyaga muvofiq, Ichki ishlar organlariga quyidagicha vazifalar keltirilgan, Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalarida shaxsga doir ma'lumotlarning chiqib ketishini oldini olish monitoring tizimini joriy etish.

1. Texnik hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash.

2. Dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida tender savdolarini o'tkazish va natijalariga ko'ra tizimni yaratish hamda server/birlamchi qurilmalarni xarid qilish choralarini ko'rish.

3. Tizimni shahar-tuman IIB MvaFRBlarida joriy etish.

Yangi avtotransport vositalarini va tirkamalarini (yarim tirkamalari) Davlat yo'l harakati xizmati tomonidan ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish (qayd etish guvohnomasi va davlat raqam belgisini yetkazib berish)

Zaxiraga olib qo'yilgan avtomototransport vositalari uchun ro'yxatdan o'tkazish

Avtotransport vositasining davlat raqam belgisini tiklash uchun ariza berish

Avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz balonlari guvoh-nomasini olish, avtotransport vositasining qayd ma'lumotlariga tegishli o'zgartishlar kiritishga ariza berish, ashyoviy dalillar bo'yicha isbotlash bazasini mustahkamlash, raqamli axborot qidiruv tizimlarini rivojlantirish, yangi ilg'or papillon va asil texnologiyalarni yangi avlodini shakllantirish.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 8-fevraldagi PQ-122-son qaroriga asosan Ichki ishlar vazirligining jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarni oldini olishning zamonaviy tendensiyasini inobatga olgan holda "Ichki ishlar organlarining tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov faoliyatida ashyoviy dalillar bo'yicha isbotlash bazasini mustahkamlash va raqamli axborot-qidiruv tizimlarini rivojlantirishning

2022-2025-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi" Ichki ishlar vazirining tegishli buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Konsepsiya 4 ta yo'nalish va 67 ta bandedan iborat bo'lib, uning maqsadi ichki ishlar organlarining protsessual faoliyatida ashyoviy dalillarni tadqiqot qilish amaliyotining kelgusi 4 yildagi ustuvor vazifalarini belgilab berishdan iborat.

Konsepsiyani amalga oshirishdagi asosiy yo'nalishlar quyidagilar hisoblanadi: zamonaviy fan va texnikaning ilg'or yutuqlarini, raqamli texnologiyalarni, kriminalistikaning yangi ilmiy usul va vositalarini qo'llash;

zamon talablariga mos avtomatlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimlarini yaratish;

raqamli texnologiyalar yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklarni aniqlashda "raqamli ekspert-kriminalist" faoliyatini joriy etish va undan samarali foydalanish;

shaxsga doir biometrik ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan identifikatsiya tizimlarini qo'llash sohasini muvofiqlashtirish;

tezkor-qidiruv tadbirlari, tergov va sud harakatlarida ashyoviy dalillar tadqiqotining yangi turlarini joriy etish;

kriminalistik ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini amalga oshirish; ekspert-kriminalistika faoliyatini moliyalashtirish manbalarini yaratish;

ekspert-kriminalistika sohasida kadrlar salohiyatini oshirishda yangicha o'quv-amaliyot tizimini joriy etish.

Konsepsiyani amalga oshirilishi mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, shaxsning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, uning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishda xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy tajriba tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud jarayonlarida shaxsning qilmishi uchun jazo muqarrarligi va aybsizlik prezumpsiyasi prinsiplari ilmiy asoslangan va rad etib bo'lmaz dalillar bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari sud-tergov faoliyatida ish uchun muhim kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni markazlashgan axborot bazalaridan kerakli ma'lumotlarni yuqori tezlik va aniqlik bilan olish evaziga inson omili kamayishiga, xodimlarni mehnati, ish vaqti va moddiy resurslarini iqtisod qilishga erishiladi.

Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT-kompaniyalarni qo'llab quvvatlagan holda qulay ekotizimni yaratishi lozim. Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlash sohasida raqamli ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o'zlashtirishda ko'maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Raqamli iqtisodning yana boshqa bir xizmatlari, shu jumladan, big data, sun'iy intellekt, mashina vositasida ta'lim berish, blokcheyn va bulutli texnologiyalar ham kelajak iqtisodiyotida va korporativ boshqaruvda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini hayotning rivojlanish tendentsiyalari yaqqol ko'rsatib turibdi.

Umuman olganda qonuniylik, xolislik va ilmiy asoslanganlik prinsiplari asosida markazlashtirilgan kriminalistik axborot-qidiruv tizimlari jinoyatlarni "izi sovimasdan" fosh etilishiga, surishtiruv va dastlabki tergov xolisona, sifatli amalga oshirilishiga, shuningdek fuqarolarni qasddan sodir etiladigan jinoyatlardan qaytarishga erishiladi deb hisoblaymiz.

Zamonaviy mehnat bozori raqamli bilimga ega yangi shakldagi kadrlarni talab qiladi, kasbiy faoliyatda ulardan foydalanish qobiliyati va ko'nikmalari. Rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida davlat ta'lim tizimi imkoniyatlar va imkoniyatlarni ochadigan jahon tendentsiyalarida rivojlanishi kerak o'quv jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari. Ushbu qo'lyozma raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning texnik-iqtisodiy asoslarini asoslaydi o'qituvchilarni qayta tayyorlash, onlayn ta'lim, gibrid ta'lim, tarmoq aloqasi yo'nalishlari texnologiya,

ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish va “makerspace” vositalaridan foydalanish kabi ta'limni raqamlashtirishning kontseptual asoslari, taqsimlangan bilishning afzalliklari tushunchalar, proksimal rivojlanish zonalari va shakllantiruvchi baholash zonalari ochiladi.

Xulosa o`rnida, zamon talablarini hisobga olib, internet va raqamli tizimlarning rivojlanib ketishi, ushbu virtual olamda o`girlik, firibgarlik va boshqa jinoyatlar salmog`ining ortishini inobatga olib, raqamli ekspertizaning yangi turlarini ishlab chiqish va shu kabi virtual olamda sodir bo`ladigan jinoyatlarning ham “issiq izi”dan ochilishini ta`minlash, aniqlangan daliliy ashyolarni qayd etish va mustaxkamlash tendensiyalari doirasida hozirgi kunda ochilmagan jinoyatlarni ochish hamda ularning profilaktikasini takomillashtirgan holda kamaytirish choralarini korish kerakligini taqazo etadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi farmon

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2020 yil 26 martgacha bo‘lgan o‘zgartish va qo‘shimchalar bilan). Rasmiy nashr / O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2020.

3. <http://utube.uz/>(Ta’lim videoportali)

4. <http://my.gov.uz/>(Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali)

5. <http://ziyonet.uz/>(Ta’lim portali)

6. <http://lex.uz/>(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi)

7. <http://wikipedia.org/>(Ochiq ensiklopediyasi)

8. <http://akadmvd.uz/>(O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi)

9. [http:// www.academy.uz/](http://www.academy.uz/)(O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi)

10. [http:// www.nuu.uz/](http://www.nuu.uz/)(Mirzo Ulug‘bek nomidagi Uzbekiston milliy

universiteti)

11. [http:// www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)(Muxammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot - texnologiyalari universiteti)

12. <http://195.158.18.42/>(Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi milliy nashrlarning elektron arxivi)

13. [http:// www.uzscience.uz](http://www.uzscience.uz)(O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar agentligi)

14. [http:// eduportal.uz](http://eduportal.uz) (Xalq ta'limi vazirligining axborot-ta'lim portali)

15. <http://gov.uz/>(O'zbekiston Respublikasi huqumat portali)